# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning oʻrni ... 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant
Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ... 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent
Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ... 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi
"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ... 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi
Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ... 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi
Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ... 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant
Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ... 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ... 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ... 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ... 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD
Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ... 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi
Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ... 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant
Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ... 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**
Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ... 73
**Usmonov Botir,** magistr
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ... 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ... 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ... 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ... 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ... 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi
Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ... 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi
Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ... 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ... 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o'qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**

Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ........ 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ........ 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ........ 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ........ 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ........ 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ........ 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ........ 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ........ 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ........ 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ........ 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ........ 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ........ 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ........ 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ........ 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ........ 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ........ 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ........ 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ........ 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ORQALI INVESTITSION SALOHIYATNI OSHIRISH



**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich**
Toshkent moliya instituti "Menejment va marketing" kafedrasi v. b. dotsent

Annotatsiya: Innovatsion-investitsion salohiyatning shakllanishi va omillari tahlili, bu sohada mavjud uslubiyotlar tizimi tahlil etilgan, mutaxassislar va iqtisodchi-olimlar qarashlari umumlashtirilgan, ularning munozarali jihatlari bayon etilgan hamda hozirgi zamon davlat investitsiya siyosatida hudud investitsion salohiyatini samarali boshqarishning ahamiyati va vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsion salohiyat, investitsion salohiyatni boshqarish, investitsion faoliyat, mintaqaviy iqtisodiyot, hududda iqtisodiy o'sishning ekzogen va endogen omillari, hududlar investitsion salohiyatini tizimli boshqarish.

Abstract: The article investigates the methodological issues of managing the investment potential of the region, analyzes the systems of available methods in this area, summarizes the views of specialists and economists, sets out controversial aspects of their views, reveals the meaning and tasks of effective management of the investment potential of the region in the modern investment policy of the state.

Key words: investment potential, investment potential management, investment activity, regional economy, exogenous and endogenous factors of economic growth in the region, systemic management of the investment potential of the region.

Аннотация: Инвестиционным потенциалом региона, были анализированы системы имеющихся методик в этой области, обобщены взгляды специалистов и учёных-экономистов, изложены спорные моменты их взглядов, раскрыты значение и задачи эффективного управления инвестиционным потенциалом региона в современной инвестиционной политике государства.

Ключевые слова: инвестиционный потенциал, управление инвестиционным потенциалом, инвестиционная деятельность, региональная экономика, экзогенные и эндогенные факторы экономического роста в регионе, системное управление инвестиционным потенциалом региона.

## KIRISH

Jahonda jadal sur'atlarda kengayib borayotgan investitsiya jarayonlariga muvofiq investitsion salohiyatni baholash, ularga ishlab chiqaruvchi kuchlarning oqilona joylashuvi ta'siri, vujudga kelayotgan tabiiy-demografik, ma'muriy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tafovutlarni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, balanslashgan investitsion siyosatni shakllantirish, investitsion faollikni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida investitsion salohiyatni oshirishning yo'nalishlariga oid olimlar fikrini o'rgangan holda kuzatish, iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil kabi usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalarning erkin kirib kelishi bo'yicha mavjud shart-sharoitlarni ta'minlash, investitsiyalar samaradorligini baholashning kompleks ko'rsatkichlari majmuasini ishlab chiqish, investitsion salohiyatni samarali boshqarish bo'yicha nazariy-uslubiy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, yirik reyting agentliklari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Peterson Institute for International Economics, The University of Chicago, Regional Economic Development Institute (REDI), Bank of America World Information Services, Business Environment Risk Intelligence (BERI), Moody›s Investor Service, Standard & Poor›s Ratings Group (S&P), The United Nations Commission on Sustainable Development (UN CSD), ATKearney (AQSh),

World Economic Forum, Harvard University, Euromoney Institutional Investor (PLC), The University of Oxford, Economist Intelligence Unit (EIU) (Buyuk Britaniya), United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD) (Shveytsariya), Control Risks Group (CRG) (Singapur), Institutional Investor (II) (Gonk Kong), Montpellier Business School (Fransiya), International Country Risk Guide (ICRG) (Avstraliya), The Fraser Institute (Kanada), Ekspert RA (RAEX) (Rossiya), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi va Toshkent moliya instituti (O'zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Masalan, xorijiy norezedentlar tomonidan amalga oshirilayotgan investitsion loyiha samaradorligini baholash bir qancha uzluksiz bosqichlarni qamrab olgan jarayonlarni tahlil qilishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksionerlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi (1-rasm).




1-rasm: Bir qator mamlakatlarda aksionerlik kapitalida xorijiy investorning nazorat qilish huquqini berish hissasi.

Bu ko'rsatkich AQShda 10 foiz, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20 foizga yaqin, Germaniyada 25 foizdan 50 foizgacha, O'zbekistonda esa 49 foiz darajasida belgilangan. Shuningdek, shu korxonaning boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni yanada kengroq miqyosda jalb qilish, ularning o'zlik mablag'larini mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun sarflashga qiziqtirish maqsadida qonun asosida ular uchun imtiyozli moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Ular quyidagi chizmada o'z ifodasini topgan.




2-rasm: O'zbekiston Respublikasida yaratilgan imtiyozli moliyaviy sharoitlar

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning bir maromda faoliyat yuritishi va investorlarning huquqlari himoya qilinishi uchun me’yoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 1998-yil 30-aprelda qabul qilingan “Chet el investitsiyalari to‘g‘risida”gi, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Soliq kodeksi chet el sarmoyalarini amalga oshirishning huquqiy asoslari va tartibini belgilab beradi. Hozirga kelib O‘zbekiston hududida xorijiy kompaniyalar faoliyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayoni, asosan, nihoyasiga yetkazildi va amalda qo‘llanilmoqda. Bu faoliyatni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarning quyidagi tizimi ishlab chiqilgan:

- xususiylashtirish jarayonida xorijiy investitsiyalarning qatnashishi;
- texnikaviy qayta qurollanish;
- xalq iste’moli va eksportga mo‘ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalarni milliylashtirish va rekvizitsiya qilinmasligiga kafolat beradi. Xorijiy investorlarning qonuniy faoliyatlari doirasida olgan daromadlari xorijiy valyutada, chegaralanmagan miqdorda chegaradan olib o‘tishlari davlat tomonidan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi №PQ–4300 sonli “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, xususiylashtirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruksiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek, xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta’minlashga qaratilgan.

Unga ko‘ra, to‘g‘ridan to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo‘yicha daromad solig‘i, mulk solig‘i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig‘i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to‘lashdan, shuningdek, Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalar to‘lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo‘lganda ozod qilinadi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha – 7 yil muddatga;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo‘lganda – 10 yil muddatga.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va chet el investitsiyalarini jalb qilishning kengayib borishi darajasiga qarab investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish, bevosita chet el investitsiyalarini yangi loyihalarga, shuningdek, xususiy tadbirkorlik subyektlarining katta qismini investitsiya faoliyatiga jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bunda chet el investitsiyalar oqimini rag‘batlantirish, shu bilan birga, milliy iqtisodiyot subyektlarining bu faoliyatda ishtirok etishini taqdirlash muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug‘ullanadigan rasmiy muassasalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: O‘zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan shug‘ullanadigan rasmiy muassasalar

| № | Rasmiy muassasa nomi | Muassasaning chet el investitsiyalarini tartibga solish va jalb etish bilan bog‘liq faoliyat doirasi |
|---|---|---|
| 1. | Vazirlar Mahkamasining tashqi iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish departamenti | Quyidagi joriy jarayonlarni muvofiqlashtiradi:<br>- investitsiya faoliyatini, birinchi navbatda, chet el investitsiyalari bilan amalga oshiriladigan loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha zarur hukumat qarorlarini ishlab chiqish;<br>- davlat boshqaruvi idoralari, vazirliklar va idoralar ishini tashkil etish. |
| 2. | Iqtisodiyot vazirligi | Investitsiya siyosatini va dasturlarini ishlab chiqish |
| 3. | O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi | - Mamlakat va xorij investorlarining investitsiya takliflari to‘g‘risida ma’lumotlar bankini shakllantirish;<br>- investitsiya muhitini o‘rganish;<br>- xorijiy investorlarga axborot va boshqa xizmatlar ko‘rsatish;<br>- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda mamlakat va xorij investorlariga yordam ko‘rsatish;<br>- chet el kapitali ishtirokida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining bajarilishini kuzatish (monitoring);<br>- korxonalarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tarzida ro‘yxatga olish va xorijiy kompaniyalar vakolatxonalarini akkreditatsiyalash. |

| | | |
|---|---|---|
| 4. | Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi | Davlatga tegishli mulkni xususiylashtirish va tasarruf etish jarayonlarida chet el investitsiyalarini tartibga solish. |
| 5. | Moliya vazirligi | Qarz siyosati va hukumat kafolatlarini berish. |
| 6. | Adliya vazirligi | Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni ro'yxatga olish. |
| 7. | Tashqi ishlar vazirligi | Xorijiy investorlarga va O'zbekistonda ishlayotgan xorijiy fuqarolarga vizalar berish. |
| 8. | Ichki ishlar vazirligi | Xorijiy investorlarni va O'zbekistonda ishlayotgan xorijiy fuqarolarni turar joyi bo'yicha ro'yxatga olish. |
| 9. | Davlat soliq qo'mitasi | Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni soliqqa tortish va ularning bojxona bilan bog'liq faoliyatini tartibga solish. |
| 10. | Markaziy bank | Konvertatsiya tartib-qoidalarini, shuningdek, uning o'tkazilishini, valyuta mablag'laridan foydalanishni tartibga solish, qarz siyosati. |
| 11. | Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki | Tashqi iqtisodiy faoliyatga bank xizmati ko'rsatish va loyihani moliyalashni amalga oshirish. |
| 12. | "O'zbekinvest" davlat sug'urta kompaniyasi va "O'zbekinvest-interneshnl" qo'shma korxonasi | Chet el investitsiyalarini investitsiya tavakkalchiligidan va xavf-xatarlardan sug'urtalash. |
| 13. | "O'zbekinvestloyiha" milliy injiniring kompaniyasi | Dastlabki texnik-iqtisodiy asosnomani va investitsiya loyihalari texnik-iqtisodiy asosnomalarini tayyorlash. |
| 14. | Davlat mulki qo'mitasi huzuridagi qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi | Qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish, rivojlantirish, nazorat qilish va tartibga solish sohalarida davlat siyosatini amalga oshirish. Mamlakat va xorijiy emitentlarning qimmatli qog'ozlarini sotib olish orqali majmua investitsiyalarini amalga oshirish. |

O'zbekiston jahon hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy siyosati bilan jonli qiziqish uyg'otadi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalar sonining tobora ortib borishi va yangilarining barpo etilishi iqtisodiy rivojlanishning garovi ekanligi oldingi paragraflarda zikr etildi. Ta'kidlanganidek, mamlakatimizga xorijiy sarmoyalarni jalb etayotgan korxonalarni iqtisodiy rag'batlantirish va zaruriy sharoitlarni yaratib berish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning quyidagi manbalari mavjuddir:

1. Korxona va jismoniy shaxslar jamg'armalari.
2. Bank kreditlari hisobidan moliyalashtirish.
3. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari hisobiga moliyalashtirish.
4. Xorijiy investitsiyalar.

So'nggi yillarda investitsiyalar tarkibi, xususan, byudjetdan ajratiladigan investitsiyalar va bank kreditlari ahamiyati keskin o'zgardi.

O'zbekistonni rivojlantirish va taraqqiyot jamg'armasi, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan amalga oshirilgan investitsiyalar o'rin olgan. Ushbu ko'rsatkichga to'g'ri kelgan investitsiyalar 2016-yilda 27,4 foizni tashkil etgan. 2022-yilda esa 20,3 foizni tashkil etgan.

2022-yil uchun belgilab olingan investitsiya dasturida moliyalashtirishning ahamiyatli qismi korxona va aholi mablag'lari (52,9 foiz) hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish (19,9,5 foiz) orqali amalga oshirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, asosiy e'tibor korxona mablag'lari va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish va buning natijasida ishlab chiqarishning texnologik quvvatlarini modernizatsiyalash, mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan.

Yuqorida fikr bildirganimizdek, har qanday davlatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi ham ichki, ham tashqi investitsiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish orqali erishilishi isbotlangan. Ushbu holatni inobatga olib, tubanda aynan, jahon investitsiyalar bozoridagi vaziyat, rivojlanishning yuqori darajalarini egallash maqsadida qabul qilinayotgan islohotlar, ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar va tendensiyalarning sharhiga navbat beriladi.

Jahon investitsiyalar bozoridagi holat. Oxirgi yillarda xalqaro investitsiyalar bozorida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) harakati yildan yilga kamayish tomon yuz tutib borgan. BMTning Savdo va rivojlanish tashkilotining (YuNKTAD) "Jahon investitsiyalari to'g'risidagi ma'ruzasi" ma'lumotlariga ko'ra, hali beri davom

etayotgan jahon moliyaviy inqirozi tufayli dunyo boʻyicha rivojlangan davlatlarga kiritilgan toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalarga qaraganda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilayotgan TTXI hajmi katta miqdorni tashkil qilgan (2015-yilda dunyo boʻyicha umumiy TTXIlar eksporti va importining qariyb 52 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga toʻgʻri kelgan boʻlsa, 2022-yilda uning ulushi 63 foizni tashkil etgan).

2022-yilda dunyo boʻyicha TTXI hajmi (eksporti va importi) 20 foizga oshgani holda, 3236 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Birgina 2022-yilda rivojlangan mamlakatlarga kiritilgan TTXI hajmi oʻtgan yilga nisbatan 36 foizga ortgan (3-jadval).

3-jadval: Toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalar oqimi, milliard AQSh dollari va foizda

| Mintaqalar | TTXI kirib kelishi | | | TTXI chiqib ketishi | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2011 | 2015 | 2020 | 2011 | 2015 | 2022 |
| Jahon boʻyicha | 1 427 | 1 277 | 1 762 | 1 311 | 1 318 | 1 474 |
| Rivojlangan davlatlar | 680 | 522 | 962 | 826 | 801 | 1065 |
| Rivojlanayotgan davlatlar | 662 | 698 | 795 | 409 | 446 | 378 |
| Afrika | 52 | 58 | 54 | 16 | 15 | 11 |
| Osiyo | 431 | 468 | 541 | 359 | 398 | 332 |
| Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo | 350 | 383 | 448 | 312 | 365 | 293 |
| Janubiy Osiyo | 36 | 41 | 50 | 2 | 12 | 8 |
| Gʻarbiy Osiyo | 46 | 43 | 42 | 45 | 20 | 31 |
| Lotin Amerikasi va Karib dengizi | 176 | 170 | 168 | 32 | 31 | 33 |
| Okeaniya | 3 | 2 | 2 | 2 | 1 | 2 |
| Oʻtish davri iqtisodiyoti mamlakatlari | 85 | 56 | 35 | 76 | 72 | 31 |
| Tarkibiy munosabatlar boʻyicha juda zaif, iqtisodiyoti kichik boʻlgan davlatlar | 52 | 55 | 56 | 14 | 14 | 8 |
| **Davlatlarning xalqaro TTXIdagi ulushi, foizda** | | | | | | |
| Rivojlangan davlatlar | 47.7 | 40.9 | 54.6 | 63.0 | 60.7 | 72.3 |
| Rivojlanayotgan davlatlar | 46.4 | 54.7 | 43.4 | 31.2 | 33.8 | 25.6 |
| Afrika | 3.7 | 4.6 | 3.1 | 1.2 | 1.2 | 0.8 |
| Osiyo | 30.2 | 36.6 | 30.7 | 27.4 | 30.2 | 22.5 |
| Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo | 24.5 | 30.0 | 25.4 | 23.8 | 27.7 | 19.9 |
| Janubiy Osiyo | 2.5 | 3.2 | 2.9 | 0.2 | 0.9 | 0.5 |
| Gʻarbiy Osiyo | 3.2 | 3.4 | 2.4 | 3.4 | 1.5 | 2.1 |
| Lotin Amerikasi va Karib dengizi | 12.3 | 13.3 | 9.5 | 2.5 | 2.4 | 2.2 |
| Okeaniya | 0.2 | 0.2 | 0.1 | 0.2 | 0.1 | 0.1 |
| Oʻtish davri iqtisodiyoti mamlakatlari | 5.9 | 4.4 | 2.0 | 5.8 | 5.5 | 2.1 |
| Tarkibiy munosabatlar boʻyicha juda zaif, iqtisodiyoti kichik boʻlgan davlatlar | 3.6 | 4.3 | 3.2 | 1.1 | 1.1 | 0.5 |

Bunda eng katta ulush sanoat jihatidan eng yuqori rivojlanishga ega boʻlgan davlatlarga toʻgʻri keladi.

TTXI kirib kelishi boʻyicha rivojlanayotgan davlatlarda oʻsish 5 foizni tashkil etgan. Osiyo davlatlariga kiritilgan TTXIlarning oʻsishi 2015-yilga nisbatan 15 foizga oshganini koʻrishimiz mumkin. Osiyo davlatlari tarkibida Hindistonga kiritilgan investitsiyalar absolyut qiymatda 59 mlrd. dollarni tashkil etib, oʻtgan yilga nisbatan ikki barobarga oʻsgan[1].

Xalqaro valyuta jamgʻarmasi, Birlashgan Millatlar Tashklotining Savdo va rivojlanish konferensiyasi va Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga koʻra, Xitoy Xalq Respublikasiga kiritilgan TTXI hajmi 2015-yilda 136 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan. Ushbu reytingda Oʻzbekiston 86 oʻrinni band etgan.

Oʻtish iqtisodiyotiga ega boʻlgan davlatlarda TTXI 2015-yilda 54 foizga qisqargan. Bunga asosiy sabab sifatida jahonda xom ashyo resurslari narxining arzonlashgani koʻrsatilsa, bunda eng koʻp pasayish Rossiya Federatsiyasi (92 foiz) va Qozogʻiston Respublikasiga (66 foiz) toʻgʻri kelgan.

2016-yilning sentyabriga qadar boʻlgan 12 oy davomida Xitoydan toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalar chiqib ketishi YaIMning 2,19 foiziga teng boʻldi. Bu esa rekord natija sanaladi. Xitoyning Yevropaga investitsi-

1 Доклад о мировых инвестициях за 2020 г. Конференция Организации Объединенных Наций по торговле и развитию. Нью-Йорк и Женева, 2021. – С. 135.

yalari 77 foizga ortib, 35 mlrd. yevroni tashkil qilgan bo'lsa, Yevropaning Xitoyga sarmoyasi – 23 foizga qisqarib, 8 mlrd. ni tashkil etdi.

Londondagi TS Lombard tadqiqot firmasining Xitoy bo'limi direktori Trey MakArverning mulohazalariga ko'ra, Xitoydagi biznesga bo'lgan munosabat "so'nggi uch-to'rt yilda keskin ravishda yomonlashgan": U avvalgidek o'ziga jalb etayotgani yo'q. Kompaniyalar katta e'tibor beruvchi nominal o'sish 20 foizdan 7–8 foizga qadar tushib ketdi[2].

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to'g'ridan to'g'ri qo'yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilishi rag'batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida qonun hujjatlariga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildiki, bu, o'z navbatida, mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Xorijiy investorning pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo'lmagan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab 10 yil mobaynida soliq qonunchiligida o'zgarishlar yuz bergan hollarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yorlari va qoidalarini qo'llashga haqli ekanligi belgilab qo'yildi.
2. Shunday tartib o'rnatildiki, qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilandi.

Shuningdek, keyingi yillarda valyuta siyosati va tashqi savdo faoliyati sohasini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, zamonaviy, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini barqaror rivojlantirishga xizmat qildi.

Shunday qilib, investitsion salohiyatni samarali boshqarishning asosiy yo'nalish va istiqbollarini ilmiy asoslash nafaqat davlatning samarali investitsiya siyosati konseptual asoslarini ishlab chiqish va uning vazifalarining bosqichma-bosqich ijrosi yordamida ta'minlanadi, balki shu bilan birga mamlakat resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishlari tadqiqini ham talab etadi. Shu bois dissertatsiyamiz mavzusi doirasidagi tadqiqotimizda aynan investitsion salohiyatni samarali boshqarish yo'nalishi sifatida O'zbekistonning resurs salohiyatidan samarali foydalanish yo'nalishlarining ilmiy tadqiqiga alohida o'rin berilgan.

**Foydalangan adabiyotlar ruyxati:**


1. The theory and practice of investment management / Frank J. Fabozzi, Harry M. Markowitz, editors. –2nd ed. Copyright © 2011 by John Wiley & Sons, Inc. All rights reserved. Printed in the United States of America.
2. Бочаров В. Р. Инвестиции: Учебник для вузов. – 2-е изд. -СПб.: Питер, 2008. – 384 с. Ил. - (Серия "Учебник для вузов").
3. Imomov H. H. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. –Toshkent, Iqtisod-moliya, 2010. – 164 b.
4. Jo'rayev A. S. va boshq. Investitsiya loyihalari tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 2003. – 246 b.
5. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. – 208 b.
6. Ishmuxamedov A. E, Qosimov. M. S, Jumayev. Z. A, Jumayev Q. X. Loyiha tahlili. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. – T.: TDIU, 2004. –159 b.
7. Jo'rayev A. S. va boshq. Investitsiya loyihalari tahlili. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq. 2003.
8. Samatov G. A, Rustamova I. B. Loyihalar tahlili fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy qo'llanma. – T., 2008. – 63 b.
9. Гитман Л. Дж., Джонк М. Д. Основы инвестирования, М.: Дело, 2007.
10. Ковалев В. В. Методы оценки инвестиционных проектов. –М.: Финансы и статистика, 2008. - 176 с.
11. Investment Appraisal: Methods and Models – Uwe Gotze, Deryl Northcott, Peter Schuster – 2015 (inv. baholash)
12. Bureau, E. T. Nine diversified companies: Are these firms attractive investment propositions?. Jan 31, 2011, 09.32am IST


2 http://www. tslresearch. com.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.